



**VIII INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND
PRACTICAL CONFERENCE
"ABU ALI IBN SINO AND INNOVATIONS IN
MODERN PHARMACEUTICS"**

**April 24th, 2025,
Tashkent / Uzbekistan**

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ВАЗИРЛИГИ
ТОШКЕНТ ФАРМАЦЕВТИКА ИНСТИТУТИ
ИБН СИНО ЖАМОАТ ФОНДИ

**АБУ АЛИ ИБН СИНО ВА ЗАМОНАВИЙ ФАРМАЦЕВТИКАДА
ИННОВАЦИЯЛАР**

VIII ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАН

МАҚОЛАЛАР ТЎПЛАМИ



**АБУ АЛИ ИБН СИНО И ИННОВАЦИИ
В СОВРЕМЕННОЙ ФАРМАЦЕВТИКЕ**

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ

VIII МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ

ТОШКЕНТ - 2025

Тахрир ҳайъати

Раис: тиббиёт фанлари доктори К.С. Ризаев

Аъзолари:

Н.С. Нормахаматов - кимё фанлари доктори, катта илмий ходим;

Н.А. Махмудов - Ибн Сино жамоат фонди Бошқарув раиси;

М.Т. Муллажоновна - фармацевтика фанлари номзоди, доцент

SEDATIV DORI VOSITALARINING DORI SHAKLLARI BO'YICHA RO'YXATDAN O'TISH KO'RSATKICHI TAHLILI

Elmuradov D.T., Qambarov X.J., Xasanov F.O., Mamatova P.U.

Toshkent farmatsevtika instituti

Kirish: zamonaviy jamiyatda stress, asabiylashish va uyqusizlik kabi ruhiy muammolar tobora kengayib bormoqda. Bunga javoban, sedativ dori vositalariga bo'lgan talab ortmoqda. Ushbu preparatlar asab tizimini tinchlantiruvchi, stressni kamaytiruvchi va uyquni normallashtiruvchi ta'sirga ega. Farmatsevtika bozorining bu segmenti o'sib borayotgan talabni qondirish uchun samarali marketing tadqiqotlarini o'tkazishni talab qiladi. Marketing strategiyalarining to'g'ri ishlab chiqilishi farmatsevtika kompaniyalariga bozorni segmentlash, iste'molchilarni jalb qilish va raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi. Ushbu tadqiqot sedativ dori vositalari bozorining hozirgi holatini tahlil qilish va marketing strategiyalarini optimallashtirishga qaratilgan.

Tadqiqotning maqsadi: sedativ dori vositalarining mahalliy farmatsevtika bozorida individual marketing tadqiqotlarini o'tkazish.

Usul va uslublar: O'zbekiston Respublikasi Davlat Reestrida 2024 yilda ro'yxatga olingan sedativ dori vositalari tahlil qilindi. Kontent tahlilini o'tkazishda preparatning savdo (xalqaro) nomi, tarkibi, qo'llanilishi, chiqarilish shakli, ishlab chiqaruvchisi va mamlakati aniqlangan. Biz hozirda O'zbekiston farmatsevtika bozorida 68 turdagisi sedativ ta'sirga ega ekanligini aniqladik. Ularning 22 tasi bir komponentli va 46 tasi murakkab tarkibga ega. (2 dan 18 tagacha). Dori vositalarining tarkibini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, eng katta ulushni o'simlik preparatlari egallaydi va foydalanishga ruxsat berilgan dori vositalarining umumiy assortimentining 96 foizini, qolgan 4 foizini sintetik dorilar tashkil qiladi. Sedativ preparatlarni chiqarish shakllarining xilma xilligini ta'kidlash kerak. Eng keng tarqalgan dozalash shakllari: suyuq shakllar (nastoykalar, tomchilar, siroplar, ekstraktlar) (49%), tabletkalar (28%), kapsulalar (19%), dori vosita xomashyosi 3%. Dori vositalarining davlat reestri ma'lumotlariga ko'ra (2024 yil holatiga ko'ra) chet elda ishlab chiqarilgan dori vositalari soni 28% ni, MDH davlatlarida ishlab chiqarilgan dori vositalari soni 31% ni tashkil etadi, mahalliy dori vositalari esa sedativ dori vositalarining umumiy assortimentining 41% ni tashkil qiladi. Boshqa sedativ preparatlar bilan bir qatorda, O'zbekiston farmatsevtika bozorida mahalliy va xorijiy ishlab chiqarilgan dorivor o'simliklar asosida tayyorlangan preparatlar mavjud. Shu bilan birga, ushbu dori vositalarining kengroq tanlovi xorijiy ishlab chiqaruvchilar tomonidan taklif etilayotgani aniqlandi. Aniqlanishicha, barcha mahalliy dori vositalari asosan o'simlik preparatlari (nastoykalar va eritmalar) ko'rinishida taqdim etilgan bo'lsa, import qilinadigan sedativ ta'sirga ega dori vositalarining assortimenti turli xil dozalash shakllari (tabletkalar, kapsulalar, siroplar, tomchilar) bilan farqlanadi.

Natijalar: O'zbekiston Respublikasi tibbiyot amaliyotida ruxsat etilgan 2024 yil uchun dori vositalari, tibbiyot buyumlari va tibbiyot texnikalarining Davlat reestri ma'lumotlariga ko'ra yuqorida keltirilgan mazkur loyiha doirasida mahalliy tabiiy xomashyolar asosida yangi tarkibli dori vositasini texnologiyasini ishlab chiqish va tibbiyot amaliyotiga joriy etish mahalliy farmatsevtika bozorini o'zimizda ishlab chiqarilgan dori vositalari bilan taminlashda muhim o'rin tutadi.

Xulosalar: dori vositalarining assortimentini ro'yxatdan o'tish ko'rsatkichi tahlil qilinganda 2024 yilda davlat reyestriga kiritilgan, xorijiy, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari hamda mahalliy farmatsevtika korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sedativ dorilarning suyuq dori shaklida bo'lganlarini ulushi nisbatan yuqori miqdorda qayd etilishi aniqlandi.

SIYDIK-TOSH KASALLIGIDA QO'LLANILADIGAN DORI VOSITALARINING RO'YXATDAN O'TISH KO'RSATKICHI TAHLILI

Eshmuradova F.O., Suyunov N.D.

Toshkent farmatsevtika instituti

Dolzarbligi: urolitiyoz metabolik kasalliklar bilan bog'liq surunkali kasallik bo'lib siydik yo'llarida toshlar, urolitlar shakllanishi bilan birga kuzatiladi. Hozirgi vaqtda urolitiyoz har yili 2,4%ga o'rtacha tarqalishini o'sishi tufayli sog'liqni saqlash sohasidagi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Buyuk Britaniyada buyrak toshlari bilan kasallanish darajasi taxminan 1,2%ni tashkil qiladi, ya'ni 63,5 million britaniyalikning taxminan 720 000 nafarida buyrak toshlari mavjud. Bu AQSH eng keng tarqalgan siydik yo'llarining buzilishi bo'lib 2010 yilda 14% tarqalgan. Rossiya Federatsiyasi Sog'liqni saqlash vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2002 yilda 2009 yilgacha ro'yxatga olingan urolitiyoz bilan kasallanganlar soni 17,3%ga oshgan, va 2016 yilda kasallanish 100 ming kishiga nisbatan 737,5 nafar bemorga yetgan, ya'ni o'n yil ichida o'sish ko'rsatkichi 25% dan oshdi. Siydik-tosh kasalligi bilan stasionarda bemorlarni urologik bo'limlarga yotqizish sabablarining 30-40%ni, hayot davomida siydik-tosh kasalligi bilan kasallanish xavfi 10%ni tashkil qiladi. O'zbekistonda siydik-tosh kasalligi o'lkaga oid kasallikdir. Respublikamizning ayrim hududlarida siydik-tosh kasalligining uchrash chastotasi bo'yicha Buxoro, Xorazm

ЖИДКИЕ ПЕРОРАЛЬНЫЕ ЛЕКАРСТВЕННЫЕ ФОРМЫ В ПЕДИАТРИЧЕСКОЙ ПРАКТИКЕ: ПРОБЛЕМЫ ДОЗИРОВАНИЯ	323
Шестопалова Н.Б.	
ОШКОЗОН МЕРИДИАНИНИНГ Е 36 АКУПУНКТУР НУҚТАСИНИНГ ИНСУЛЬТ КАСАЛЛИГИНИ ДАВОЛАШДАГИ АХАМИЯТИ.....	323
Эргашева Н.О., Эргашев О.Р., Авезов М.Х.	
ARTERIAL ГИПЕРТЕНЗИЯ ВА СУРУНКАЛИ БУЙРАК КАСАЛЛИГИ РИВОЖЛАНИШ ЖАРАЁНИДА СЕМИРИШНИНГ ТУРЛИ ФЕНОТИПЛАРИ БЎЛГАН БЕМОРЛАРДА КАРДИОМЕТАБОЛИК ХАВФНИНГ ТАБАҚАЛАНИШИ	324
Эрназарова М.М.	
ИЗУЧЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕПАРАТА НЕФРОЦИЗИН ПРИ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЙ ПОЧЕЧНОЙ ПАТОЛОГИИ	325
Юсупова С.М.	

6-SEKSIYA.

DORI VOSITALARINI YARATISH, SOTISH VA ULARDAN FOYDALANISH BOSQICHLARIDA FARMAKO-IQTISODIYOT

PHARMACOECONOMICS AT THE STAGES OF CREATION, SALE AND APPLICATION OF DRUGS ФАРМАКОЭКОНОМИКА НА СТАДИЯХ СОЗДАНИЯ, РЕАЛИЗАЦИИ И ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЛЕКАРСТВЕННЫХ СРЕДСТВ

REVMATIZMDA QO'LLANILADIGAN DORI VOSITALARI TAHLILI	326
Amirova G.B., Suyunov N.D.	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RO'YXATGA OLINGAN SEDATIV PREPARATLARINING KONTENT TAHLILI	327
Elboyeva V.N., Safarova D.T.	
SEDATIV DORI VOSITALARINING DORI SHAKLLARI BO'YICHA RO'YXATDAN O'TISH KO'RSATKICHI TAHLILI	328
Elmuradov D.T., Qambarov X.J., Xasanov F.O., Mamatova P.U.	
SIYDIK-TOSH KASALLIGIDA QO'LLANILADIGAN DORI VOSITALARINING RO'YXATDAN O'TISH KO'RSATKICHI TAHLILI	328
Eshmuradova F.O., Suyunov N.D.	
GASTRIT KASALLIGINI DAVOLASHDA QO'LLANILADIGAN DORI VOSITALARI NARXLARINING QIYOSIY TAHLILI	329
Ibragimova G.B., Suyunov N.D.	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARMATSEVTIKA BOZORIDA BUYRAK-TOSH KASALLIKLARIGA QARSHI ISHLATILADIGAN DORI VOSITALARINING ASSORTIMENT TAHLILI.....	330
Javliyyeva O.O., Raximova G.R.	
PHARMACOECONOMICS OF DIURETIC DRUGS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	331
Lure M.E., Rakhimova O.R., Rakhimova G.R.	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RO'YXATGA OLINGAN DIAREYAGA QARSHI DORI VOSITALARNING MARKETING TAHLILI.....	331
Masharipova R.R., Olimov N.K.	
ARTEMESIA ANNUA VA SALVIA OFFICINALIS O'SIMLIKLARI EKSTRAKTINING O'TKIR ZAHARLILIGINI ANIQLASH	332
Normaxamatov N.S., Toshmurova Ch.T., Turaboyev A.A., Rahmonova G.G., Sh.Yakubov	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARMATSEVTIKA BOZORIDAGI GEPATOPROTEKTOR TA'SIRGA EGA DORI VOSITALARINING MARKETING TADQIQOTLARI	333
Olimov N.K., Sidametova Z.E., G'afforova R.U.	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARMATSEVTIKA BOZORIDAGI ISHLAB CHIQUVCHILAR TOMONIDAN MAHALLIY O'SIMLIK XOMASHYOLARI ASOSIDA OLINGAN GEPATOPROTEKTOR DORI VOSITALARINING ASSORTIMENT TAHLILI.....	334
Olimov N.K., Sidametova Z.E., G'afforova R.U.	
AKUSHER-GINEKOLOGIK KASALLIKLARNI DAVOLASH VA OLDINI OLIISH BO'YICHA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA-TADBIRLAR TAHLILI...	335
Rajabova N.X., Qozoqboyeva G.A.	